ADABIYOT TA’LIMIDA TALABALARNING KASBIY REFLEKSIV-EMPATIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING NEYROPEDAGOGIK ASOSLARI

Shoyimova Shoira Sanakulovna
Alfraganus universiteti
“Pedagogika” kafedrasi dotsent v.b.,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Dolzarblik. Zamonaviy globallashuv va tizim dasturlari asosida ta’limning gumanistik shaklini saqlab qolish, talabalarda hissiy intellekt va kasbiy refleksiyani rivojlantirish pedagogik muammolardan biri bo‘lib qolmoqda. An’anaviy adabiyot o‘qitish metodikasi ko‘p sharoitda faqat kognitiv bilish jarayonlarga yo‘naltirilgan bo‘lib, pedagogik faoliyatning asosi bo‘lmish empatik muloqot va neyro-estetik idrok masalalari e’tibordan chetda qolmoqda. Shu bois, neyropedagogik yondashuvlar asosida talabalarning refleksiv-empatik kompetentligini rivojlantirishni takomillashtirish zarur.

Maqsadi. Adabiyot darslarida neyropedagogik texnologiyalarni qo‘llash orqali talabalarda kasbiy refleksiv-empatik kompetentlikni rivojlantirishning metodologik asoslarini empirik o‘rganish.

Usullar va natijalar. Adabiyotlar bilan ishlash va nazariy tahlil.

Tadqiqot jarayoni tizimli tahlil, qiyosiy-pedagogik dekonstruksiya, neyropedagogik modellashtirish hamda “Refleksiv-empatik profil” (REP) diagnostika so‘rovnomasi metodlaridan foydalanildi. Avvalo, mavzu bo‘yicha mavjud ilmiy manbalar, pedagogik va psixologik adabiyotlar, ilg‘or xorijiy va mahalliy tajribalar o‘rganilib, nazariy tahlil amalga oshirildi. Tajriba guruhida adabiy qahramonlar hissiy dunyosini “Zehn nazariyasi” asosida tahlil qilish, metaforik assotsiatsiya va kognitiv yuqorilash texnologiyalari joriy etildi.

Olib borilgan tajriba-sinov ishlari tajriba guruhi (TG) talabalarning refleksiv-empatik kompetentlik ko‘rsatkichlari nazorat guruhiga (NG) nisbatan o‘sganligi aniqlandi. Kognitiv refleksiya darajasi TGda 24% ga oshdi. Affektiv empatiya (hissiy rezonans) ko‘rsatkichi 31% ga yuqoriladi. Neuro-estetik idrok va matnni vizuallashtirish 28% li dinamikani ko‘rsatadi. Neuropedagogik metodlar talabalarda badiiy matnni “ichki kechinma” sifatida idrok etish va o‘quvchilar bilan empatik muloqotga kirishish neyronal mexanizmlarini faollashtirdi.

Xulosa. Adabiyot ta’limida neyropedagogik yondashuvning tatbiq etilishi bo‘lajak o‘qituvchini shunchaki nazariy bilimlar tashuvchisi bo‘lishdan qutqarib, uni yuqori darajadagi kasbiy refleksiyaga ega bo‘lgan empatik mediator sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Miya faoliyatining neyrofiziologik qonuniyatlariga asoslangan ushbu yondashuv talabalarda badiiy matnni idrok etishning kognitiv va affektiv mexanizmlarini sinxronlashtirish imkonini beradi. Bunday yondashuv adabiyot darslarini nafaqat bilim berish, balki o‘quvchining ruhiy va intellektual dunyosini tushunishga yo‘naltirilgan jonli muloqot maydoniga aylantiradi. Oxir-oqibat, neyropedagogik kompetentlik bo‘lajak mutaxassisning kasbiy barqarorligini va shaxslararo munosabatlardagi metodik mahoratini yangi bosqichga olib chiqadi.